



2020- yil yanvar-iyun oylari uchun Navoiy viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida jami **2 027,3** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **100,9 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.




Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 500 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 366 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **123,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **70,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **118,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **16,1 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **145,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **13,1 %**) o'sishidir.

| | holatiga ko'ra: | | O'tgan yilga nisbatan, % da |
|---|-----------------|-----------------|-----------------------------|
| | 01.07.2019- yil | 01.07.2020- yil | |
|  Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda) | | | |
| Navoiy viloyati | 1 153 | 1 519 | 131,7 |
| Navoiy sh. | 392 | 416 | 106,1 |
| Zarafshon sh. | 81 | 121 | 149,4 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Karmana | 192 | 249 | 129,7 |
| Konimex | 29 | 39 | 134,5 |
| Qiziltepa | 146 | 221 | 151,4 |
| Navbahor | 93 | 181 | 194,6 |
| Nurota | 70 | 98 | 140,0 |
| Tomdi | 26 | 40 | 153,8 |
| Uchquduq | 41 | 58 | 141,5 |
| Xatirchi | 83 | 96 | 115,7 |



Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.07.2020- yil holatiga ko'ra (*ulushi % da*)




Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (27,4 %), Karmana tumani (16,4 %) va Qiziltepa (14,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **489,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **84,0 %** ga kam bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,9 %** punktga kamayib, **24,1 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **64,5 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **67,8 %**), Navoiy shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,6 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **192,2 %**), ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2019- yil yanvar-iyun
- 2020- yil yanvar-iyun


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,2 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **6,1 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **113,7 %** ni tashkil etgan holda **1 098,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **21,7 %** ni tashkil etdi yoki **439,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **95,7 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


O'sish sur'ati % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **455,1** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **82,2** % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 572,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **108,1** % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **22,4** % va **77,6** % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi % da





**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyun oylarida**

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|------------------------|--|---------------|----------------|----------------|----------------|
| | | mlrd. so'm | ulushi % da | mlrd. so'm | ulushi % da |
| Navoiy viloyati | 2 027,3 | 455,1 | 100,0 | 1 572,2 | 100,0 |
| Navoiy sh. | 545,3 | 83,9 | 18,4 | 461,5 | 29,3 |
| Zarafshon sh. | 478,4 | 321,4 | 70,6 | 156,9 | 10,0 |
| tumanlar: | | | | | |
| Karmana | 215,0 | 6,7 | 1,5 | 208,4 | 13,3 |
| Konimex | 54,4 | - | - | 54,4 | 3,5 |
| Qiziltepa | 291,7 | 13,7 | 3,0 | 278,0 | 17,7 |
| Navbahor | 124,3 | 4,1 | 0,9 | 120,1 | 7,6 |
| Nurota | 95,5 | 3,1 | 0,7 | 92,3 | 5,9 |
| Tomdi | 45,7 | 13,5 | 2,9 | 32,3 | 2,0 |
| Uchquduq | 31,7 | 3,0 | 0,7 | 28,7 | 1,8 |
| Xatirchi | 145,3 | 5,7 | 1,3 | 139,6 | 8,9 |



2020- yil yanvar-iyun

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

75,1 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **75,1 %** i yoki **1 522,2** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

84,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **410,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **84,0 %** ni tashkil etdi.

71,9 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **789,5** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **71,9 %** ni tashkil etdi.

73,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **321,8** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **73,3 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyun oylarida**

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm) | O'sish sur'ati, % da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm) |
|------------------------|--|-----------------------------|---|
| Navoiy viloyati | 2 027,3 | 100,9 | 1522,2 |
| Navoiy sh. | 545,3 | 101,7 | 459,6 |
| Zarafshon sh. | 478,4 | 100,3 | 415,0 |
| tumanlar: | | | |
| Karmana | 215,0 | 100,4 | 144,9 |
| Konimex | 54,4 | 106,4 | 41,8 |
| Qiziltepa | 291,7 | 100,4 | 150,4 |
| Navbahor | 124,3 | 100,9 | 85,8 |
| Nurota | 95,5 | 100,8 | 72,0 |
| Tomdi | 45,7 | 100,7 | 27,7 |
| Uchquduq | 31,7 | 100,6 | 27,4 |
| Xatirchi | 145,3 | 100,5 | 97,6 |



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi, % da

2019- yil yanvar-iyun

16,9



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

10,7



Fuqarolik obyektlarini
qurish

72,5



Bino va inshootlarni
qurish

2020- yil yanvar-iyun

13,1



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

16,1



Fuqarolik obyektlarini
qurish

70,8



Bino va inshootlarni
qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **26,4 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga ko'payib, **43,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,9 %** punktga kamayib, **30,6 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **21,5 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **19,8 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **78,5 %** (**19,8 %** punktga ko'payish) tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **26,1 %** punktga kamaydi va **15,3 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,7 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **26,1 %** punktga ko'paydi.






mlrd. so'm

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida
qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyun oylarida**


| | Qurilish ishlari hajmi | shu jumladan: | | |
|------------------------|------------------------|------------------------------|--------------------------------|--------------------------------------|
| | | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
| Navoiy viloyati | 2 027,3 | 1435,5 | 326,7 | 265,1 |
| Navoiy sh. | 545,3 | 404,4 | 61,3 | 79,6 |
| Zarafshon sh. | 478,4 | 368,5 | 41,9 | 68,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Karmana | 215,0 | 148,8 | 37,6 | 28,6 |
| Konimex | 54,4 | 43,9 | 9,9 | 0,5 |
| Qiziltepa | 291,7 | 146,1 | 91,4 | 54,3 |
| Navbahor | 124,3 | 102,6 | 11,8 | 9,9 |
| Nurota | 95,5 | 81,7 | 6,8 | 7,0 |
| Tomdi | 45,7 | 19,6 | 17,5 | 8,6 |
| Uchquduq | 31,7 | 21,8 | 6,6 | 3,3 |
| Xatirchi | 145,3 | 98,1 | 41,9 | 5,3 |



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari, ulushi % da.




Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-iyun oylarida bino va inshootlar qurilish ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Nurota tumanida qayd etildi (ushbu hududda bino va inshootlar qurilishi umumiy hajmining **85,5 %** i yoki **81,7** mlrd. so'm), shuningdek, Navbahor tumani (ushbu hududda bino va inshootlar qurilishi umumiy hajmining **82,5 %** i yoki **102,6** mlrd. so'm), Konimex tumanida ham (ushbu hududda joylashgan bino va inshootlari qurilishining umumiy hajmidan **80,8 %** i yoki **43,9** mlrd so'm), o'z ulushiga ega.

Fuqarolik obyektlari qurilishi, jamiga nisbati, % da

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda fuqarolik obyektlari qurilishi umumiy hajmining **38,3 %** i yoki **17,5** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda fuqarolik obyektlari qurilishi umumiy hajmining **31,3 %** i yoki **91,4** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (ushbu hududda joylashgan fuqarolik obyektlari qurilishining umumiy hajmidan **28,8 %** yoki **41,9** mlrd. so'm) da qayd etildi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining **18,8 %** i yoki **8,6** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining **18,6 %** i yoki **54,3** mlrd. so'm), Navoiy shahari (ushbu hududda joylashgan ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmidan **14,6 %** yoki **79,6** mlrd. so'm) da qayd etildi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyun oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Navoiy sh.
545,3

2

Qiziltepa
291,8

1

Zarafshon sh.
478,4

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Uchquduq
31,7

2

Konimex
54,3

1

Tomdi
45,7

3





Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

**Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: (79) 222-04-46

(79) 223-54-73